

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**MUSIQA, BADIY GRAFIKA VA MEHNAT TA'LIMI FAKULTETI  
«BADIY GRAFIKA VA UNI O'QITISH METODIKASI»  
KAFEDRASI**

**“Amaliy san’at ” yo’nalishi 3- 06 guruh talabasi**

**Umar Bozorovning**

**TASVIRIY SAN’AT TARIXI**

fanidan yozgan

# **KURS ISHI**

**MAVZU: O`RTA OSIYO MINIATYURA SAN`ATI.**

Bajardi:

Umar Bozorov

Tekshirdi:

J. Rahmatov

**Samarqand-2015**

## **Mavzu: O'rta Osiyo miniatyura san'ati.**

<b>Kirish :</b> .....	3
<b>I-bob O'rta Osiyo mo'jaz rangtasviri (miniatyura) haqida umumiy ma'lumot</b> .....	6
1.1. Mo'jaz rangtasviri (miniatyura) san'atining o'ziga xos tamonlari.....	6
1.2. Zamonaviy O'zbekiston miniatyura san'atiniung rivojlanishi.....	16
<b>II-bob Miniatyura asarlarini o'rganish va unda estetik tarbiyaning ahamiyati</b> .....	23
2.1. Miniatyurada kompozisiyaning tungan o'rni.....	23
2.2. Miniatyura san'atining estetik tarbiyadagi ahamiyati.....	28
<b>Xulosa :</b> .....	35
<b>Foydalanilgan adabiyotlar:</b> .....	37
<b>Ilova</b> .....	38

## Kirish

Tasviriy san'at va amaliy san'at asarlarini o'rganish inson aql idrokining kengaytrib uning tevarak atrof munosabatini ustiradi. Miniatyura san'atini o'rganish iqtidorli va estedotli yoshlarni shakillanuvi uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Shu kabi kishi qalbida go'zallik hislarini, ezgulikni, tabiatga, Vatanga bo'lgan muhabbatni oshiradi. Tarixiga, milliy urf odatlariga bo'lgan qiziqishni oshiradi va uni ulug'laydi. Shuningdek yoshlarni sabr toqatli, chidamli bo'lishlarida ularda mehnat qilish ko'nikmalarini shakllanishida ham yordam beradi. Bo'lajak o'qituvchilar oldida mashaqqatli, ammo sharafli bo'lgan ishlar turibdiki, ular yetishib kelayotgan yosh yigit qizlarga milliy ruhda ta'lim tarbiya berishi, bugungi kunning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

1997-yili O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da estetik turkumdagi fanlarni o'qitilishiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, xususan uning "Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari" qismida uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplaridan biri ta'limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi, U ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish lozimligini qayd etadi.

Vatanimizning yorqin kelajagi bo'lgan ardoqli farzandlarini baodob, xushfe'l, olijanob, komil inson darajasidagi shaxs qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Kelajak yoshlarni komil, sog'lom, teran fikrli, dunyo qarashi keng, Vatanga, halqimizga foydasi tegadigan barkamol insonlar bo'lib yetishishida tasviriy san'at fanining ham o'z o'rnini bor. O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimovning "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" nomli asarida "Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi

an'analirimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liqdir", deb takidlab o'tgan edilar

O'tmishda ota-bobolarimiz tasviriy san'at, amaliy san'at va hunarmandchiligida yuksak darajaga etishganligining sabablaridan biri ajdodlarimiz usta-shogird an'analari asosida yoshlarga hunar o'rgatganlar va ular nihoyatda boy tajribaga ega bo'lganlar.

Bugungi kunda davlatimiz tamonidan ta'lim tarbiya jarayoniga berilayotgan e'tibor diqqatga sazavordir. Bo'lajak o'qituvchilar ham yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda bu imkoniyatlardan unumli foydalanmogi kerak.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'limdagi barcha ishlar komil inson ma'naviyatini rivojlantirish bilan bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Zamonaning ilg'or kishilari safida bo'lish masalasi ham bugun dolzarb. Mana shunday muammolarni bartaraf etishda miniatyura san'atini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb yetadi.

Bo'lajak o'qituvchilar oldida mashaqqatli, ammo sharafligi bo'lgan ishlar turibdiki, yoshlarga miniatyurada rasm ishlashni o'rgatish bilan birga uning rivojlanishi tarixi haqida ham ma'lumotlar berib borishi zarur.

O'zbekiston hududiga mansub qadimgi rangtasvir san'ati o'ziga xos bebaho namunalari ega. Bulardan, Samarqandning o'zini Afrosiyob, Surxondaryoning Bolaliktepa, Buxorodagi Varaxsha, Panjikentdagi devoriy rangli tasvirlar diqqatga sazovordir. Miniatyura san'atining eng katta va o'ziga xos taraqqiy etgan davri bu asosan Temuriylar davri hisoblanadi. XIV – XV asrlarga kelib qo'lyozma kitoblarning qayta ko'chirilishi natijasida ko'plab tasviriy san'at namunalari yuzaga keladi va ular kitobat san'atini yanada boyitadi. Bu asarlarda asosan shoh, saroylardagi hayotiy voqyealar tasvirlab beriladi. XVIII—XIX asrlarda ijod qilgan tasviriy san'at ustalaridan Muhammad Muqim, Ahmad Kalla, Ahmad Donish, Mulla Xusniddin, Mulla Ortiq, Rahmatiy, Ibrohim Davron kabi rassomlar faoliyati e'tiborga molikdir. Masalan, O'zbekiston san'atshunoslik

institutida saqlanayotgan XIX asr boshlarida Ahmad Donish tomonidan ishlangan «Majnun sahroda» deb atalgan miniatyura o'lkamiz tabiat manzarasini aks ettirishi bilan alohida qimmatga ega

XX asr va XXI asr boshida O'zbekiston rassomlari hamda xalq ustalari tomonidan ko'plab durdona asarlar yaratildi. O'zbekiston rangtasvirida milliy yunalishning hayot bilan bevosita bog'liq va mavzu hamda uslubiga ko'ra ancha rang-barang bo'lgan yo'li ham rivojlanadi. 70-yillardagi avlod orasida bu yo'nalish vakillari asosan B. Jalolov, J. Umarbekov, T. Muhamedov, Sh. Abdurashidov va A. Mirzayevlar ijod qilishgan. Ular syujet va obrazlarning hayotiy ishonarliligini saqlab qolgan holda, kundalik voqeelikni ulug'vor va sirli ma'noga to'liq borliqqa aylantirishadi.

O'zbek lokli miniatyurasi tashabbuskorlari — taniqli rassom Chingiz Ahmarov rahbarligi ostida ishlab turgan Niyozali Xolmatov, Shomahmud Muhammadjonov, Abdubosid Qambarov, Natalya Soy, Munira Sotiboldiyeva, G'ayrat Kamolov, Abdug'ani Aldashevlarning dastlabki asarlari yaratildi.

Shomahmud Muhammadjonov O'rta asrlardagi ustalardan farqli ravishda, miniatyura san'atining an'anaviy tizimiga zamonaviy muallifning o'ziga xos badiiy tafakkurini ham singdirishga harakat qiladi. U O'zbekiston tasviriy san'atida an'analar va zamonaviylikning uyg'unlashuvidan iborat o'ziga xos yunalishning asoschilaridan biriga aylandi.

Miniatyurada ishlangan rasmlar tamoshabinga juda katta badiiy estetik ta'sir etib u nafosat olamiga etaklaydi. Miniatyuradagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko'rinishlar xaqqoniy aks ettiriladi. Miniatyurada faqatgina narsa va voqyealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari ham ifodalanadi. Miniatyura san'ati jozibali va qiziqarliligi bilan nafaqat o'zlashtirishda, hatto uni idrok qila bilishda ham muayan tayyorgarlikni talab qiladi.

## **I-bob O'rta osiyo mo'jaz rangtasviri (miniatyura) haqida umumiy ma'lumot.**

### **1.1. Mo'jaz rangtasviri (miniatyura) san'atining o'ziga xos tamonlari.**

O'zbekiston hududiga mansub qadimgi rangtasvir san'ati o'ziga xos bebaho namunalariga ega. Bulardan eng qadimilari ibtidoiy Zaravutsoy, Sarmishsoy kabi tasvirlar hisoblanadi. Rangtasvir san'atidagi keyingi yutuqlarni qadimgi kulolchilik namunalarini bo'laklarida, ayniqsa, tuproq ostida saqlanib qolgan binolarning deborlariga ishlangan suratlarda batafsilroq ko'rish mumkin. Bulardan, Samarqandning o'zni Afrosiyob, Surxondaryoning Bolaliktepa, Buxorodagi Varaxsha, Panjikentdagi devoriy rangli tasvirlar diqqatga sazovordir.

Afrosiyob rangtasvir san'ati. Hozirgi Afrosiyob nomi bilan yuritilayotgan Samarqandning qadimgi o'rnidan topilgan devoriy rasmlarda rangtasvir san'atining rang-barang va nafis namunalari mavjud. Bu erda obrazlarning xarakteri va mazmuni yoritib berilishida turli bo'yoqlar mahorat bilan ishlatilganligini ko'ramiz. Afrosiyob rangtasvir san'atining eng xarakterli namunasi shoh saroyi ko'rinishiga xosdir. Devoriy rasmdagi salobatli filning tasvirini ko'zatar ekanmiz har bir bo'yoq o'z o'rnida ishlatilganligini ko'ramiz. Ranglar tasvirning jonli chiqishida muhim rol o'ynaganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Filning ustiga maxsus mo'ljallangan yopchiqdagi tasvirlar kishini beixtiyor o'ziga jalb qiladi. Bu tasvirlarda qizg'ish, sarg'ish, jigarrang, ayniqsa hovorang ko'proq ishlatilgan. Filning bosh qismi birmuncha, orqa tanasi esa to'laligicha tasvirda saqlanib qolgan. Ayoqlari aniq ko'rinib turibdi. Filning ustida bezatilgan jul bo'lib unda qanotli sher tasvirini ham ko'ramiz, bundan tashqari bir qancha bezaklar aks ettirilgan. Umumiy bo'yoqlar majmuasi esa to'q havorang bilan qamrab olingan. Afrosiyob devoriy tasvirlarining ko'pgina qismi saqlanib qolmaganligi qadimshunoslar va san'atshunoslarni yanada izlanishga jalb qiladi. Filning ustida taxtiravon, taxtiravonda oqsuyak ayol o'tirganligi tasvirlangan bo'lishi kerak, degan taxminlar hambor. Tasvirda saqlanib qolgan, filning ustidagi taxtiravonni bitta ustunchasi aniq ko'rinib turibdi. Ana shu ustunchani ayol kishining barmoqlari ushlab turganligi ham saqlanib qolgan. Orqadagi tasvirlar ham filning

ustidagi taxtiravonda ayol kishining borligini tasdiqlaydi. Orqada otga minib kelayot uch nafar ayolning suratlari aks ettirilgan. Birinchisining to'liq ko'rinishi deyarli yaxshi saqlanib qolgan.

Rasimdagi obrazning eng karakterli tomoni sharq xaqqlariga xos nafis va latofatli go'zallikka ega bo'lgan ayol qiyofasining gavdalantirilishidadir. Ayolning butun qomatida, liboslaridagi rang va shakillarning karakterlari hatto soch turmaklarida ham sharqona xususiyatlar yaqqol ko'rinib toribdi. Umuman, bu devoriy tasvirlarda bo'yoqlarning ishlatilish uslublaridan keng ko'lamli va o'ziga xos foydalanilgan.

Otlardagi uch nafar ayolning tasvirlari bir - biriga o'xshab ketsada ular mingan otlar rang jihatidan bir-biridan farq qilib turganligi aniq ko'rinadi. Birinchisi, to'q ko'k otda, ikinchisi sariq ot mingan uchinchi ayol esa qizil ot mingan bo'lib, uchinchi ayolning tasviri deyarli saqlanmagan. Ulardan keyingi tasvirda soqchilar, tuya mingan arkaklar aks ettirikgan. "Qorachadan kelgan birinchi erkak katta yoshda bo'lib, soqoli va mo'yloviga oq tushganligi yaqqol sezilib turibdi. Uning o'siq quyuc qoshlari ham oq. Qoramtir yuzida qovoqlari botiq, ko'k ko'zlari yorqin ko'rinadi. Sochlari oq bog'ich bilan bog'langan. Chap qo'log'ida zirak bor. U o'ng qo'lining ikki barmog'i bilan qal'ani ko'rsatayapti. Chap qo'lida uchiga hayvon boshi ishlangan chuqmor. Ustiga qizil chakmon kiygan yelkasiga tashlangan sariq rangsiz kiyim shamolda hilpiraydi.

Ikkinchi erkak yosh, rangpar yuzli, qora soqqoli va ingnichka mo'ylovlidir. Qora sochlari qizil bog'ich bilan tortilgan. Birinchi erkak kishi singari uning yuz tuzilishi ham ovro'poliklarnikigina o'xshaydi. Katta qirg'iy burunli og'zi kichik bu kishining o'ng ko'ziga sariq (oltin) chuqmor bor. Ikkala erkak ham o'zun qilich bilan qurollangan. Qilich kamarining chap tomonida osilib turibdi. Ularning belbog'lariga kalta hanjar ilingan. Dastalarida yovvoyi qushlar boshining tasviri solingan.

Tuyalar jigarrang, birinchisining ustida fillarning surati solingan kunguralar bilan bezatilgan doirasimon jul bor. Aynan bu tasvirlar topilgan paytida arxeologlar o'rganib, yuqoridagidek ta'riflar berishgan. Umuman Afrosiyob devoriy rasmlarining bir necha nusxalari, O'zbekiston tasviriy san'at muzeyi, adabiyot va tarix muzeilarida ham mavjud. Bu suratlarni kuzatar ekanmiz, rassom devoriy rasmda keng manzarani qamrab olishga intilganini ilg'aymiz. Teparoqda joylashgan manzaradagi oq qushlar tasviri esa devoriy suratga yanada badiiy mazmun kiritgan. Tasvirda oq qushlarning harakati bir-biriga uyg'unlashib ketganki bu manzarada o'ziga xos musiqiy ohang jaranglab turgandek. Kompozisiyaning rangga boy qilib tasvirlanganligidan Afrosiyob tasviriy san'ati nihoyat darajada badiiy yutuqlarga ega ekanligini ko'ramiz. Deroriy suratlarining juda ko'p qismi turli sabablarga ko'ra o'chib ketgan. Lekin, shunga qaramasdan, bu suratlar mazmunini tushunib olish mumkin. Masalan, beligacha saqlanib qolgan erkak kishining tasviridagi salobatlilik alohida ahamiyat kasb etgan. Musavvir obrazga urg'u berish bilan birga uning martabali kishi ekanligini ko'rsatmoqchi bo'lgan ko'rinadi. G'arbiy devorga ishlangan suratlar, ayniqsa, uch kishini qimmatbaho kiyimlarda aks ettirilishi oddiy tomoshabinni hayratga solibgina qolmasdan, har qanday san'at ustasini ham o'ziga jalb qila olishi tabiiydir. Mato va liboslardagi bu tasvirlarda humo qushi, qanotli ot, echki, tovus kabi turli qush va hayvonlar anatomik tuzilishiga mos aks ettirilgan. Bu esa musavvir mahoratidan darak beradi.

Ko'plab obrazlar, boy va sermazmun xarakterga ega bo'lgan. Afrosiyob devoriy rasmlari nafaqat tasviriy san'atimiz merosini, balki butun sharq xalqlari tarixini o'rganishda ham juda katta ahamiyatga ega.

Bolaliktepa rangtasvir san'ati. Termiz yaqinidagi Bolaliktepa yodgorligidan topilgan hashamatli saroyga o'xshash bino devorlarining to'rtala tomoni ham turli ko'rinishdagi rangdor tasvirlar bilan to'ldirilgan. Qiziqarli tomoni shundaki, xona devorlarining to'rtala tomonida ishlangan suratlarda ham odamlarni o'tirgan holatdagi ko'rinishlari aks ettirilgan. Gilamchalarga o'xshash to'shamchalar ustida



sharqona tiz cho'kib, chordona qurib, yonboshlagan holda juft-juft bo'lib o'tirgan erkak va ayollarning obrazlari diqqatga sazovor. Tasvirdagi bu "gilamcha" lar ayni paytda o'zbek xonadonlarida ishlatiladigan ko'rpachalarni eslatadi.

Erkaklar egnidagi kamzilga o'xshash kiyimlar uzun, yoqasi uchburchak shaklidagi keng qaytarmalari ko'rinishga ega. Bellarida ingichka tasma va unga o'tkazilgan xanjar tasvirlari ham aniq ko'rinishga ega.

Ayollarning liboslari esa o'ta rang- barang. Quloq, bo'yin va barmoqlarida serbezak taqinchoqlar, ko'zgu ushlab tugan bu ayollar chiroyi shaqona ko'rinishga yanada jonlilik kiritgan.

Bolaliktepa rangtasvir san'atida odamlarning kayfiyati, o'zaro munosabatlari, xarakterlari rassom tomonidan o'ta ustalik bilan tasvirlangan. Umuman obrazlarning xatti-harakati, qiyofalaridagi ko'rinishlar qandaydir to'y yoki bayramona marosimni aks ettirmoqda. Orqa planda esa qomati deyarli to'liq tasvirlangan xizmatkorlar elpig'ich ushlab turishibdi. Odamlarning qo'llarida qadahlarning tasvirlanishi, bir-birlariga bo'layotgan samimiy iltifotlar ham to'yona holatdagi bazmu jamshidni ifodalaydi.

Varaxsha rangtasvir san'ati. Buxoroning qadimgi madaniy markazlaridan biri – Varaxshadan ham devorlari suratlar bilan bezatilgan hashamatli saroy qoldiqlari topilgan. Bu me'morchilik obidasi va undagi san'at namunalari sharq xalqlariga xos madaniy aloqalar qay darajada bo'lganligini o'rganish imkoniyatini ham ko'rsatib beradi. Bir qarashda tasvir va naqshlar bir-biriga bog'liq va monanddek ko'rinadi. Shu bilan birga o'ta farq qiladigan tomonlarini ham kuzatish mumkin. Devoriy rasmlardan birida fil mingan o'rta yoshli kishi obrazi bir oyog'i uzangida, bir oyog'i esa bukilgan holda tavirlangan. Bundan tashqari, rasmda arslonga o'xshash haybatli hayvonning filga hamla qilgan holatidagi tasviri ham aks ettirilgan. Shuningdek, Varaxshaning boshqa devoriy rangli suratlarida podshoning qabul marosimiga bag'ishlangan hashamatli ko'rinishlari o'rin olgan. Umuman, tasvirlar rang-barang manzaralar bilan boyitilgan va ma'lum bir go'zallikni o'zida

mujassamlashtirgan. Devoriy suratlardagi tabiat manzaralari turli daraxtlar ko'rinishlari bilan o'zgacha ma'no kasb etgan.

Umuman yuqorida ko'rgan dalillarimizdan oydinlashadiki, o'tmish tasviriy san'ati me'morchilik san'atining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Nozik va nafis, rang – barang devoriy suratlar, haykaltaroshlik namunalari me'morchilik san'atini boyitibgina qolmasdan, u bino va xonalarni nima uchun, kim uchun xizmat qilganini ham har tomonlama aniqlab bergan. Qadimgi musavvirlar o'z hunarlarini tugal egallagan mohir san'atkor ekanliklarini ular yaratgan tasvirlarning me'yoriga etkazib ishlaganligidan, obrazlar xarakterlarini to'laqonliligidan yaqqol sezish mumkin. O'tmishda tasviriy san'at ilg'or bo'lib kelgan. Rassomlar doimo ijodiy izlanib o'z faoliyatlarini kengaytirganlar. Shuning uchun bo'lsa kerak, mashhur musavvir Moniy nomi bilan rivoyatlar to'qilgan. Shunday rivoyatlardan birini taniqli olim P. Zohidov hikoya qiladi: “Moniy shahar darvozasidan kirar ekan o'z ko'zlariga ishonmabdi. Qarshisida afsonaviy go'zal va fayzli shahar namoyon bo'lgandi. Mana, yam-yashil daraxtlar salqinida orombaxsh joy-xovuz suvlari mavjlanadi. Ariqlarda suv sharqirab oqmoqda. So'lim gulzor. Zilol suvdan ichging keladi. Ajab! Bu tasvirning sehri edi. Xatto kimdir suv olaman deb ko'zasini sindiribdi. Tasvir kuchiga qoyil qolgan mehmonlar o'z kasibdoshlari san'atiga tahsin o'qishibdi. Shu payt Moniy qo'lga mo'yqalam olib, hovuz yaqinidagi barvasta itning rasmini chizib qo'yibdi. Tasvir shunchalik tabiiy ediki, itni ko'rgan kishi uning joni bor deb beixtiyor o'zini chetga tortar edi. Shundan keyin Moniy chuqur o'yga tolibdi: uning shogirdlari mahorat cho'qqisini tamom egallashgan. Endi ustoz ularga nimani o'rgatishi mumkin. Shunday yangi ijodiy yfq toppish kerakki, unga intilgan sari yangidan – yangi go'zallik olami ochilaversin. Nihoyat Moniy bir to'xtamga kelib, shogirdlariga shunday vazifa topshirib “Tabiatni tasvirlash - bu san'atning nuhoiyasi emas, agar kimki rasmdagi har bir chiziqqa jon bag'ishlay olsagina u san'at kalitini egallagan bo'ladi”. Bu juda og'ir va mashaqqatli vazifa edi. Ana shu vaqtdan boshlab naqqoshlar chiziqlar tilsimini ochishga bel bog'labdi. Necha – necha avlodlar ana- shu izlanish yo'lida

ter to'ka boshlabdilar. Natijada naqqoshlik asosini chiziqlar simfoniyasidan iborat turli ornamentlar – naqshlar egallab olibdi". Muhim tomoni shundaki, o'tmish rang – tasvir san'ati boy an'analarga behisob badiiy qiymatlarga ega. Bir – biridan butunlay farq qilgan va har birining o'zida etuk san'atkorlik xususiyatlari jamlangan tasvirlarga duch kelamiz. Albatta, qadimgi rassomlarning barcha tuyg'u va fikrlari, shuningdek, rango – rang ijod olami va mo'yqalamining sehrli tasvirlari to'la – to'kis bizgacha saqlanib kelmagan. Shuning uchun ham biz ularni to'liq ta'riflash imkoniyatiga ega emasmiz.

Miniatyura san'atining eng katta va o'ziga xos taraqqiy etgan davri bu asosan Temuriylar davri hisoblanadi. Bu davr san'atining serqirraligi shundaki, ko'pgina xalqlar o'rtasida shakllangan tasviriy san'at maktablari markazlashgan bir qiyofasini aynan shu Temuriylar davrida topadi.

XIV – XV asrlarga kelib qo'lyozma kitoblarning qayta ko'chirilishi natijasida ko'plab tasviriy san'at namunalari yuzaga keladi va ular kitobat san'atini yanada boyitadi.. Bu asrlarda asosan shoh, saroylardagi hayotiy voqyealar tasvirlab beriladi.

Umuman Sohibqiron Amir Temur o'z davrida Samarqandni ulkan madaniyat markaziga aylantirgan edi. O'sha zamonlarga oid nafis miniatyura rasmlarning katta qismi Parij, Myunxen, London, AQSh ning ko'pgina shaharlarida, Santk-Peterburg, Moskov, Tehron, Qohira, Afg'oniston, Hindiston, Mo'g'ulistondagi muzeylarda saqlanmoqda. Amir Temur davrida ijod etgan tasviriy san'at ustalaridan mashhur ustod Gung taxminlarga qaraganda monuviylik tariqati vakillaridan ta'lim olgan bo'lishi mumkin. Ustod Gung Temur davri tasviriy san'at maktabining asoschisi bo'lgan. Amir Temurning o'zi yashagan davrdagi musavvirlaridan Buxorolik ustod Jahongir, bag'dodlik Abdulhay va ustod Shamsiddin, tabrizlik Pir Said Ahmad, Samarqandlik Ahmad Bog'ishamoliy, Shoh Muhammad Tamimiy va boshqa tasviriy san'at vakillarining Samarqanddagi ijodiy faoliyatini qayd qilish mumkin. Temur faoliyatidan so'ng esa Samarqandda Mirzo Ulug'bek davrida tasviriy san'at

yanada rivojlandi. Temuriylar davri nafis tasviriy san'ati haqida o'zlarining «miniatyura tarixidan lavhalar» kitobida N. Norqulov, I.Nizomiddinovlar shunday hikoya qilishadi: «Devorga surat chizish san'ati Mirzo Ulug'bek zamonida yanada yuqori pog'onaga ko'tarildi. Tarixnavislar uning Chilsutun chorbog'ida Chinixona qasrini nihoyatda go'zal qilib qurdirganini yozadilar. Abdurazzoq Samarqandiy Mirzo Ulug'bek rasadxonasining xonalari devorlarida to'qqiz osmonning ko'rinishi, osmon gumbazalari darajalari, minut va sekundlar va hakozi ulushlari tasviriy yetti yoritqich sayyora, sobita yulduzlar, iqlimlar, tog' dengiz sahro va shularga oid buyum va jonivorlar surati g'oyat nafis va jonli naqsh etilganini yozadi». Shunday qilib, Temuriylar zamonasida sharqona miniatyura san'atini bir qancha maktablari va uning buyuk ijodkorlari yuzaga keldi. Natijada temuriylar davrda shakllangan nafis tasviriy san'atning dovrug'i jahonga yoyiladi.

O'tmish tasviriy san'ati haqida fikr yuritar yekanmiz bugungi kunda ko'p qo'llanilayotgan miniatyura so'zining o'ziga qisman to'xtalish lozim. Bu ibora deyarli XIX asr boshlarigacha ishlatilmagan. «Miniatyura» - kitobga ishlagan surat (mo'jaz surat) yoki kichik hajmdagi nafis tasvirlarga nisbatan ishlatilishi an'anaga aylanib qoldi.

Sharq jumladan Markaziy Osiyo xalqlarining tasviriy san'atidagi miniatyura ham o'ziga xos namunalariga ega. Bu borada tasviriy san'atimiz tarixida o'zining noyob namunalari va ajoyib san'at vakillarini yuzaga keltirgan Hirot «Nigoriston» (nafis san'at akademiyasi) maktabi jahon tasviriy san'ati maktablari ichida oldingi saflarda turadi. Aynan shu maktabda Kamoliddin Behzoddek buyuk rassom kamolga yetgan. Bu maktabning mohiyati va mazmunini aniqroq tushunish uchun uning ma'nosini tahlil qilmog'imiz kerak. «Nigoriston» iborasiga kelganda aytish lozimki, bu nigorlar, chehralar, qiyofalar demakdir.

Samarqandda shakllangan tasviriy san'at maktabi Hirot orqali jahon xalqlari madaniyatiga ta'sir o'tkazganini alohida qayd etmoq kerak. Olim

Naim Norqulovning ma'lumot berishicha, Boysunqur Mirzo Hirot nafis va tasviriy san'ati anjumani (akademiyasi) ni tuzgan. Nomlari jahon tasviriy san'ati tarixida muhim o'rin yegallangan Xo'ja G'iyosiddin Haraviy, Amrshohiy Sabzavoriy, Mirak Naqqosh, Halil Mirzo Shohruhiy, Sulton Ibrohim, Sultonali Mashhadiy, Mavlona Ja'far Turbatiy Hirot akademiyasi tashkilotchilari yedilar.

Boysunqur Mirzo Hirotda nafis san'at maktabini yaratishda butun Sharq halqlari madaniyati durdonalaridan foydalaniladi. Bu ishda unga otasi Shohruhning qo'shni mamlakatlar bilan keng ko'lamda olib borgan savdo, diplomatik va madaniy aloqalari katta yordam berdi. Bu maktab Nigorsiton nomi bilan ham mashhur bo'ldi.

Hirotda shakllangan nufuzli san'at maktabida Kamoliddin Behzod o'nlab musavvirlarga ustozlik qildi. Umuman, Behzod ijodining olamshumulligi shundaki, u o'lmas maktab yarata oldi. Uning ijodidan ilhomlangan Qosim Ali, Sulton Muhammad, Muzafar Ali, Yusuf Mullo, Rustam Ali, Mirsaid Ali, Mahmud Muzahhib, Abdullo kabi ko'pgina musavvirlar miniatyura san'ati va kitobat san'ati ravnaqi uchun xizmat qildilar.

Xullas, buyuk musavvir ijodida shunday nuqtalar borki, ularni kuzatib san'at asarlari faqat tashqi dunyoni bilish uchungina yaratilmasligini uqasiz. Bu asarlar odamlarda his –tuyg'u qo'zg'atadi. Zamonaga, davr tartibotlariga nisbatan munosabatni shakllantiradi. Behzod va uning ilg'or zamondoshlari ijodida dunyoviy mavzu yetakchi hisoblangan. Bu maktab ijodkorlari islomdan avvaligi davrlarga ham nazar tashlay olganlar. Shundan ilhomlanib, ular o'z zamonlari mafkuralariga zidroq bo'lsa - da, dadil faoliyat olib borganlar.

Sharq xalqlari madaniyati tarixida miniatyura va kitobat san'atini ayri tasavvur qilish mumkin emas. Qo'lyozma kitoblardagi naqshlarda tabiat bag'ridagi gul va daraxtlar va boshqa turli mavjudotlarning rangi, shakli o'z aksini

jamlashtirganini ko'ramiz. Navoiy davrida Hirotida xattotlik san'ati namoyandalari Mir Ali Tabriziy, Sulton Ali Mashhadiy, uning shogirdlari Muhammad bin Nur, Darvesh Muhammad Toqiy, Sulton Muhammad xandon, Darvesh Muhammad Samarqandiy, Abdujamil kabilar faoliyat kursatishgan. Bular orasida Sulton ul-xattoton, Qiblat ul-kuttob nomini olgan Sulton Ali Mashhadiy alohida o'rin egallaydi. Alisher Navoiy qo'lyozma kitoblariga ishlangan suratlarda shoirning ma'naviy qiyofasi o'z aksini to'la-to'kis topganini kuramiz.

Albatta, bu o'rinda, Navoiy portreti qaysi rassomlar tomonidan yaratilganligi ham katta ahamiyatga ega. O'zbek she'riyatining sultoni Alisher Navoiy obrazini Kamoliddin Behzoddan tashqari Maxmud Muzahhib tasvirda yaratgan.

Mahmud Muzahhib XV—XVI asrlarda Hirot va Buxoroda yashab ijod etgan. Miniatyura san'ati ustasi Maxmud Muzahhib asli Hirotida Kamoliddin Behzod qo'lida ta'lim olgan. O'z o'rnida Buxoro miniatyura maktabining rivojlanishiga hissa ko'sha olgan rassom Muzahhib ijodiy faoliyati ham tasviriy san'at tarixida alohida ahamiyatga ega. Ma'lum bo'lishicha, XVI asrning 40—70-yillarida Maxmud Muzahhib ijodi gullab-yashnagan. Ayni shu davrda Buxoro tasviriy san'ati ravnaq topdi. Markaziy Osiyo miniatyura va kitobat san'atining markaziga aylandi. Kamoliddin Behzoddan so'ng nafis tasviriy san'atning davomchilari sifatida Mahmud Muzahhibning faoliyati Buxoro san'atkolari ijodida o'z ta'sirini o'tqazdi. Endi bu yerda ishlangan rasmlar ko'chirilgan kitoblar har jihatdan o'zining mukammal mazmuniga ega bo'la boshladi. Musavvirning ijodidagi rang-barang yutuqlar kompozitsion yechimlardagi o'ziga xos nafisliklar uni Hirot nafis san'at maktabini o'rganganligini ko'rsatadi. Bu rassom tomonidan ishlangan Navoiy portreti ayni paytda Eronning Mashhad shahridagi Osmoni Qudus majmuasida saqlanmoqda. Portretning qimmatliligi o'z zamonasiga xos an'anaviy miniatyura uslubida yaratilganligidadir. Yana shuni aytish kerakki asar muallifi Alisher Navoiy o'z ko'zi bilan ko'rgan va Kamoliddin Behzod ustozligidagi nafis san'at maktabini o'tagan. Maskur portret Navoiy zamonasidan bir oz keyin yaratilgan bo'lsada yuqoridagi dalillar uning haqiqatga yaqinligini aynan ta'kidlab

turibdi. Bu obroзда gavalangan ochiq chehrali qiyofani Behzod va unga o`xshash boshqa rassomlar asarlarida ham uchratish mumkin. Mashhur portretida keksa va nuroniy chehrasidan iliq tabassum balqib turgan buyuk bobomiz Alisher Navoiyga xos o`ta zukkolik hamda donolik yaqqol ko`rinib turubdi. Portretni diqqat bilan kuzatganimizda Navoiyni diqqatli ko`z qarashlari bilan u kimningdir suhbatini tinglayotganday tuyuladi.

Noyob qo`lyozma kitoblarga ishlatilgan miniatyura san`atining katta bir qismi Zahiriddin Muhammad Boburning „Boburnoma“ kitobiga zarb etilgan. Atoqli adabiyotshunosh olim Hamid Sulaymonovning sayharakatlari evaziga “Boburnoma”ga ishlangan bebaho miniatyura rasmlar alohida kitob holida nashr qilingan. Unda jamlangan suratlarning birinchisi XVII asr boshlarida ishlangan hushtab shoirona qiyofadagi Zahiriddin Muhammad Bobur siyomosidir

Keyingi davr miniatyurani rassomlari haqida ma`lumotlar juda kam bo`lsada, ular yaratgan asarlar horijiy davlatlardagi ko`pgina muzey va kutubxonalarning qimmatli xazinalari sifatida saqlanib kelmoqda.

XVIII—XIX asrlarda ijod qilgan tasviriy san`at ustalaridan Muhammad Muqim, Ahmad Kalla, Ahmad Donish, Mulla Xusniddin, Mulla Ortiq, Rahmatiy, Ibrohim Davron kabi rassomlar faoliyati e`tiborga molikdir. Masalan, O`zbekiston san`atshunoslik institutida saqlanayotgan XIX asr boshlarida Ahmad Donish tomonidan ishlangan «Majnun sahroda» deb atalgan miniatyura o`lkamiz tabiat manzarasini aks ettirishi bilan alohida qimmatga ega. Xuddi shuningdek, XIX asr miniatyura san`atining xarakterini Ahmad Kalla ishlagan rasmlarda ham ko`ramiz. Xulosa qilib aytganda, bu davrda ham O`zbekiston tasviriy san`atida, miniatyura mo`jaz san`ati keng miqyosda taraqqiy etgan.

## **1.2. Zamonaviy O'zbekiston miniatyura san'atining rivojlanishi.**

Ko'p asrlar davomida rivojlanib kelgan miniatyura rangtasviri jahon san'ati tarixida haqli ravishda faxrli urinni egallaydi. XX asr va XXI asr boshida O'zbekiston rassomlari hamda xalq ustalari tomonidan ko'plab durdona asarlar yaratildi. Ular ijodiy xayolot boyligi va mukammal ijrosi bilan kishini hayratga solibgina qolmay, o'zbek xalqining ko'hna tarixidan, badiiy madaniyatining serqirra va o'ziga xosligidan ham dalolat beradi. Ular jahon san'atining Oltin fondidan haqli ravishda o'rin olgan.

Biroq miniatyura rangtasviri o'zbek xalqining barcha davrlar va xalqlar madaniyati xazinasiga qo'shgan eng salmoqli hissasidir. O'rta Osiyo o'zbek miniatyurasi — musulmon Sharqi xalqlari san'ati ko'p asrlik tarixining eng qiziqarli sahifalaridan biri. U tasviriy san'atning alohida turi sifatida kitobat bezagi bo'lib, mumtoz Sharq, she'riyati ta'sirida rivojlangan. Sharq, adabiyotining mumtoz vakillaridan bo'lmish Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylar musavvirlar uchun bitmas-tuganmas ilhom manbai hisoblanishgan, ularning ijodini yuksak insonparvarlik g'oyalari, umrboqiy obrazlar bilan boyitishgan. Sharq she'riyati miniatyura rangtasvirining gumanistik mazmunini hamda g'oyaviy yunalishini belgilabgina qolmay, balki badiiy shaklning rivojlanishiga ham muayyan darajada o'z muhrini bosgan.

Poetik obrazlarning ulug'vor olami bilan muzayyan etilgan tili, vazn go'zalligi, ohangdorligi musavvirlarga she'riyat bilan bag'oyat hamohang shartli dekorativ uslub, romantik jihatdan ko'tarinki, shoirona obrazlar tizimini yaratishga yordam berdi. Sharq miniatyura rangtasviri xalqning olamni idrok etishi va his etishini obrazlarda mujassamlashtiradi, chunki hayotiy voqeelikni, xalqning tarixiy va diniy o'ziga xosligini jonli obrazlarda tasvirleydi, binobarin, «hayot kuzgusi» hisoblanadi.

O'zbekiston rangtasvirida milliy yunalishning hayot bilan bevosita bog'liq va mavzu hamda uslubiga ko'ra ancha rang-barang bo'lgan yo'li ham rivojlanadi. 70-



yillardagi avlod orasida bu yo'nalish vakillari asosan B. Jalolov, J. Umarbekov, T. Muhamedov, Sh. Abdurashidov va A. Mirzayevlar ijod qilishgan. Ular syujet va obrazlarning hayotiy ishonarliligini saqlab qolgan holda, kundalik voqeylikni ulug'vor va sirli ma'noga to'liq borliqqa aylantirishadi.

Mirzayevning izlanishlari va yechimlari ancha rang-barang, biroq, rasmlari rang-barangligiga qaramay, ularga ham «tug'ma xususiyatlar» xosdir. Ularda yorqin, ochiq, bir-biriga zid buyoqlarda berilgan xalk, amaliy san'ati an'analari ham ko'rinib turadi. Lekin Sharq xattotligi bilan aloqadorligi betakrordir. A. Mirzayev muyqalamni qalamdek ishlatadi, uning harakatlari rassomning his-tuygusini ifodalaydi

XX asrning 70-yillari Toshkentda "Sovg'alar" ("Suvenir") fabrikasining naqshi nigor sexida ko'plab ishlab chiqrish ushunchun "Sharq she'riyati" mavzuida miniatyuralar ishlandi. Bezak yog'och sirtiga quruq, pigment bilan emas, balki suvbo'yoq bilan chizilib, ustidan loy qoplanardi. O'rta Osiyo miniatyura rangtasviri an'analari hamda texnologiyalarini hisobga olmay tayyorlangan bu sovg'alarning badiiy qimmatini, tabiiyki, yuqori emasdi. Ayni mahalda «Usto» birlashmasida palex rangtasvir maktabi ko'nikmalariga ega bo'lgan er-xotin Vinogradovlar o'z ijodida yangicha yunalishlarni izlashga ilk bor urinib ko'rishdi. Bu rassomlar, afsuski Sharq miniatyurasini, uning obrazlarini, milliy xususiyatini qadimgi ustalarning kompozision va badiiy usullarini chuqurroq, urganish vazifasini o'z oldilariga quyishmagandi. O'sha yillarda «Usto» birlashmasi naqqoshlari guruhiga O'zbekiston xalq rassomi usta naqqosh Jalil Hakimov rahbarlik qilgandi. U tuxum qo'shib tayyorlangan quruq bo'yoq bilan, zarvaraqlardan foydalangan holda, uncha katta bo'lmagan bezaklarni chizardi. Bu tajribalar Sharq lokli miniatyura texnologiyasi Fedoskino, Palex, Xoluy, Mstera singari rus qishloqlari ustalarining naqshinkor buyumlarini tayyorlash texnologiyasiga ancha o'xshashligi to'risidagi fikrni yana bir bor tasdiqladi. Ikona chizish san'ati va qisman xalq sodda san'ati usullarini meros qilib olgan ushbu an'anaviy kasblar ustalari foydalanadigan badiiy ifoda vositalari asosida yotuvchi

tempera rassomligi texnikasi Sharqning o'rta asrlar miniatyurachilari ishi bilan ko'p jihatdan hamohang edi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi A.Navoiy nomidagi adabiyot muzeyida uning uslubini hamda farqli xususiyatlarini o'rganib, bunga amin bo'lish mumkin. Bu yerda H. Sulaymonov tomonidan to'plangan qadimgi Sharq kitobat miniatyurasining barcha turlaridan namunalar mavjud.

XX asrning 80-yillari boshi O'zbekiston madaniy hayotida shonli sana bo'lib qoldi. Tasviriy san'atning yangi turi — toshqog'ozdagi lokli minianyura rangtasviri yuzaga keldi. Xalq san'atining barcha turlarini saqlash, rivojlantrish va tiklash maqsadida O'zbekistan Rassomlar uyushmasining badiiy fondi tomonidan tashkil qilingan xalq san'ati ustalarining "Usto" birlashmasida badiiy bezaklar eksperimental ilmiy-ishlab chiqarish ustaxonasi ochildi. Ustaxonaga dastlab Niyozali Xolmatov, so'ng O'zbekiston xalk, rassomi Chingiz Ahmarov rahbarlik qildi. Yosh ustalarning dastlabki lokli miniatyura asarlari paydo bo'ldi. Biroq bo'yoq tayyorlash va undan foydalanish jarayoni, bo'yoqning zarur komponentlari va erituvchilarini aniqlash, zarhal bezaklar siri noma'lum edi. Yanada aniqrog'i, tasviriy san'atning yangi turi yuzaga kelgani haqida emas balki asli bo'lgan turi tiklangani haqida gapirish zarur. Urta Osiyoda lokliminiatyura mavjud bo'lgan-bulmaganligi to'g'risida san'at tarixi va nazariyasi bo'yicha mutaxassislar yakdil emas edilar.

O'tmishda devorga, kitob muqovasiga, toshqog'oz buyumlarga chizilgan tabiat va inson tasviri saqlanib qolmagan. Ayrim tadqiqotchilar Markaziy Osiyo xududida buyumlar sirti faqat islimiy naqsh bilan bezatilgan, chunki Qur'oni Karim odamlar va jonivorlarni tasvirlashni taqiqlagan, deb hisoblashgan. Biroq tarixiy xujjatli ma'lumotlar va saqlanib qolgan qadimgi buyumlar bu taxminni rad etadi. Masalan, Istanbul (Turkiya)dagi To'pqopi saroyi muzeyi nodir eksponatlari paygambar Muhammad alayhis-salom tasviri tushirilgan uchta tugmali hirqa kiyib yurganliklaridan dalolat beradi. Qadimgi Sharq adabiy va she'riy qulyozma kitoblari esa islom dini hukmron bo'lgan davrlarda Samarqand, Buxoro, Hirot, Tabriz kutubxonalarida bezatilgan. Miniatyurachi rassomlarga xukmdorlar va

davlat arboblari o'zlari homiylik qilib, ularni saxiylik bilan taqdirlashgan, ular uchun maxsus majmualar, ustaxonalar va maktablar bunyod etishgan.

XX asrning 30-yillari oxirida palexlik rassom I. Chepurin lokli rangtasvir texnologiyasi sirlarini yosh ustalariga urgatish uchun O'zbekiston san'at muzeyiga taklif qilinadi. K. Alimovning maxsus toshqog'oz plastinalarga ishlangan «Raqqosa», «Bolali ayol», «Choyxonada» kompozitsiyalari bunday hamkorlikning dastlabki natijalari bo'ldi. Ular 1939 yilda Moskvada bo'lib o'tgan havaskor ijodkorlar ko'rgazmasida namoyish etildi. O'zbekistonlik yosh mutaxassislar o'sha ijodiy-professional aloqalarni davom ettirib, 80-yillarning boshida, lokli rangtasvir texnologiyasi bilan tanishish uchun Rossiya (Fedoskino, Palex)ga bir necha marta borishadi. Natijada o'zbek ustalari qadimgi rus xunarmandchiligi an'analari va ma'naviy madaniyatini o'zlashtirib, palex miniatyura maktabi shakllanishi davridagi dastlabki ustalar ishini, ikona chizishdan miniatyura rangtasvirga utish jarayonini o'rganib, ayni mahalda toshqog'ozdan qolip tayyorlash bilan bog'liq barcha jarayonlar, yozuv uslubi va tuxum sarig'idan tempera bo'yoqlari tayyorlash, zarhal tayyorlash va uni tasvir sirtiga surtish usullari, maxsus mo'yqalam tayyorlash texnologiyasi bilan batafsil tanishishadi.

“Usto” rahnamoligida. “Usto” uyushmasi eksperimental ilmiy-ishlab chiqarish ustaxonasi ishidagi qiyinchiliklar bugungi kun nuqtai nazaridan maqbul bo'lgan asarlarni yaratish bilangina bog'liq emas. Munosib ranglar maxrajini tanlash, jumladan, an'anaviy qora rangdan voz kechish ham muammo bo'lib chiqdi. Qora rangda kompozitsiya yaratmaslikka urinib ko'rildi, perspektiva va hajmdan voz kechishli, tasvirni feruza yoki oq rangda tekislikda aks ettirish usuliga murojaat qilindi, tuxum sarig'i va o'rik yelimi qorishmasidan tayyorlangan, usimlikdan olingan turli bo'yoqlar sinab ko'rildi, toshqog'ozdan milliy qoliplar tayyorlash texnologiyasi o'zlashtirildi. Qadimgi mumtoz namunalari asosida o'z uslublarini bugungi kun kishisining ma'naviy dunyosi bilan hamohang syujetlarni izlash davom etdi. O'zbek lokli miniatyurasi tashabbuskorlari — taniqli rassom Chingiz Ahmarov rahbarligi ostida ishlab turgan Niyozali Xolmatov, Shomahmud

Muhammadjonov, Abdubosid Qambarov, Natalya Soy, Munira Sotiboldiyeva, G'ayrat Kamolov, Abdug'ani Aldashevlarning dastlabki asarlari yaratildi.

“Usto” birlashmasi xodimlari, rassomlarining sa'yiharakati, izlanishlari hamda tashabbuslari tufayli O'zbekiston miniatyura rangtasviri qisqa vaqt ichida aniq tashkiliy shakllar kasb etdi, ko'plab qiziqarli asarlar yaratildi.

Shomahmud Muhammadjonovning ijodi ham O'zbekistonda zamonaviy miniatyura rangtasvirini tiklash va rivojlantirish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. 13 yashar Shomahmudni professor Hamid Sulaymonov O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyiga taklif etgandi. Yoshgina o'quvchi o'sha yillardayoq O'zbekistonning qadimgi adabiyoti, aniqrog'i, Mahmud Koshg'ariy ijodi, uning «Devonu lug'otit turk» asari (XI asr) mavzuida miniatyura ishlashda o'zini sinab ko'rdi. Bu asarda qadimgi rivoyatlar, qo'shiqlar epik dostonlar keltirilgan. Yosh rassom miniatyuralar turkumini Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Burhoniddin Rabruziy, Durbek, Furqat, Hamza, ayniqsa, Alisher Navoiy asarlaridan foydalanib, hozirgi kunga qadar davom ettirish niyatida edi.

1968 yilda O'zbekistonda Alisher Navoiy tavalludining 525 yilligi keng nishonlandi. Sh.Muxhammadjonov bu sanaga suvbo'yoqda uslubiy jihatdan miniatyuraga yaqin bo'lgan 50 qoralamani tayyorladi. Professor H. Sulaymonov ularni hayajon bilan ko'zdan kechirib, yosh musavvirni “XX asr Behzodi”, deb atadi. Sh. Muhammadjonov ijodi O'zbekiston tasviriy san'atida butun bir oqimni shakllantirgan, teran ildizga ega bo'lgan va kashfiyotchi rassomning zamonaviy qarashlari bilan belgilangan yangi hodisa darakchisi bo'ldi. Uning kitobat miniatyurasi yoki lokli rangtasvir uslubida yaratilgan asarlariga sodiqlik va ayni mahalda, betakrorlik xos bo'lib, rassom nafosati, ohang o'ynoqiligi, ranglar jushqinligi, kompozisiya uyg'unligi va g'oyaviy-falsafiy ohangdorlik esh bo'lib ketgan.

Hozirgi lokli miniatyura san'atida qadimgi ustalarning miniatyura rangtasviri an'analari izdoshlaridan biri iste'dodli rassom Niyozali Xolmatovdir. Uning bir

xilda qovushadigan yoqimli va xira ranglardan foydalanishi bag'oyat tushunarli badiiy-tasviriy shakllarni yaratish borasidagi izlanishlarining asosiy farqli xususiyatidir. Rassom miniatyuralarida beg'ubor bo'yoqlar tig'iz burtma yamoqdek ko'rinadi. U chizgan rasmlar ko'rinishdan oddiy va sipo. Buyoq oddiy berilgan, jimjimadorlikdan butkul xoli. Kompozisiyalari ifodali, tasvirlar lo'nda. N. Xolmatov syujetga qa't'iy rioya etadi, mavzuni ochish uchun zarur bo'lgan narsanigina aks ettiradi. Rangtasvirda ikkinchi darajali sanalgan manzarani yangidan talqin qiladi, syujetda ma'no tashuvchi elementlarnigina (tog'lar, daryolar, kullar, gullar va h.k.) ko'rsatadi. Kompozisiyaga kiritiladigan personajlar sonini kamaytiradi. Odamlar qiyofasi hajmi va tipiga ko'ra farqlanadi. N. Xolmatov kishilar his-hayojonini — qayg'usi, quvonchi, tantanasi, ma'yusligi va hokazolarni ravon tasvirlaydi.

Miniatyurachi rassom Bahodir Yuldoshev miniatyura san'atida tajriba olib boruvchi rangtasvir ustasi. U o'rta asrlar miniatyurasi texnikasini ajoyib tarzda egallabgina qolmay, uzining miniatyura ishlash usulini muntazam takomillashtirib ham boradi. Uning mu'jaz kamer asarlari ijro texnikasi buyicha miniatyura rangtasviri uslubiga rioya etilgan. Bular — «Oshiq darvish», «Darvish», «Bangilar» va boshqalar. Rangtasvir ustasi lokli miniatyuradan tashqari, moybo'yoq va tempera texnikasida dastgoh rassomligi bilan ham shug'ullanadi.

B. Yuldoshevning ijodini o'rta asrlar Sharqi miniatyurachi rassomlari ijodi bilan qiyoslansa ular o'rtasidagi asosiy farq o'rta asrlar rassomlari o'z qahromonlari libosini deyarli bezamaganliklarida ekanligi ko'rinadi. B. Yuldoshevning minatyura asarlarida uning qahramonlari kiyimi mayda nafis bezaklar bilan to'ldirib tashlangan, bu uning asarlarini sharqona rang uyg'unligi bilan boyitadi.

Hozirgi miniatyura ustalari, ayni holatda shu jumladan B. Yuldoshev ijodining asosiy xususiyati psixologik jixatdan yorqin obrazlilikka kirib borishdan iborat bo'lib, o'rta asrlar ustalari asarlaridan shunisi farq qiladi.

Miniatyura san'atning uslubiy pishiqligi, uning estetik quvvati zamonga tug'ridan-tug'ri taalluqli bo'lib, u bilan chambarchas bog'liq. O'rta asrlar Sharqi miniatyura asarlari qahramonlari olis o'tmish muammolarini: kishilar o'rtasidagi munosabatlarni, ularning muhabbati, kurashi, ehtirolari, orzu-umidlarini yorqin ifodalagan. Rassomning urf-odatlar va din bilan belgilangan faoliyati ijtimoiy munosabatlarning yagona yopiq tizimiga kiritilgan. San'atning rivojlanishi esa umumiy uslub me'yorlari hamda qoidalari bilan belgilangandi.

Hozirgi rassomlarning ko'pchiligi o'z miniatyura asarlarida adolatli voqeylikdan an'analarning birmuncha barqaror olamiga, vaqt guyo tuxtagan, go'zallik va she'riyat hukm surayotgan, aldovlar bo'lmagan, yolg'on jazosini topadigan, his-tuyg'u mustahkam va barqaror, muhabbat abadiy bo'lgan, kamchiliklar esa kulgi ostiga olinadigan. Haqiqat tantana qiladi, shavkat, jasorat va mardlik e'tibor topadigan olamga bosh olibketishga intiladilar. Tasvirlanayotgan voqyealar ishonarli ifodalanishiga qaramay, ular hozirgi miniatyura ustalari tomonidan romantic orzular va go'zal xayollar og'ushida talqin qilinadi. U ko'proq har ikkalasining aql bovar qilmaydigan, biroq har bir musulmonga dil-dilidan milliy, yaqin va qadrdon bo'lgan, o'tmishning, hozirning va kelajakning boqiy kategoriyalarini aks ettiradigan olamga birikib ketishidir.

O'zbekiston san'atining serbutoq daraxtida bugun yana bir go'zal shox gula kirdi. Bu — miniatyura bo'lib, u respublika badiiy madaniyatini shubhasiz boyitadi, bezaydi va ajib mevalarini beradi.

## **II-bob Miniatura asarlarini organish va unda estetik tarbiyaning ahamiyati.**

### **2.1. Miniaturada kompozitsiyaning tungan o'rnini.**

Tasviriy san'atning barcha tur va janrlari qatori miniatura san'atida ham kompozitsiyaning o'z o'rnini bor. Kompozitsiya so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, tuzish, birlashtirish, bog'lash, turli xil unsurlarni bir butun yaxlitlikka birlashtirish va biron-bir g'oyani madh etish ma'nosini bildiradi. Kompozitsiya – san'atning barcha yo'nalishida qo'llaniladi. Musavvir turli shakl va manzaralarni bir-biriga nisbatan solishtirib va joylashtirib nafis san'at asari yaratadi.

Ko'pincha asarning tomoshabin tomonidan qabul qilinishi, uning kompozitsiya echimiga bog'liq ekanligini yodda tutmoq kerak. Kompozitsiyani osimliklar dunyosidan boshlab organishga harakat qilib ko'raylik. Daraxt misolida ko'rilganda unib chiqayotgan ildiz, shox, barg, novdalarning tanasiga uzviy bog'liq ekanligini nazarda tutmoq lozim. Rassom tasviriy shakl orqali bo'laklarni bir-biriga bog'laydi va umumlashtiradi. Tasvirlash, demak, asar bo'laklarini o'zaro aloqalarini o'rnatish, ularni umumiy yaxlitlikka bog'lash, umumlashtirish orqali ko'zlangan maqsadga erishishdan iborat. Tasviriy san'at asari qaysi janrga mansub ekanligi va ifodalash uslubidan qat'iy nazar kompozitsiya bilan bo'lanishi asarning tugallangan san'at asari ekanligini bildiradi. Musavvirlar asrlar davomida o'z asarlarining tasvirlash echimini aniq, ravshan, tiniq namoyon etish maqsadida kompozitsiyaning yangi tuzilmalarini qidirishgan. Natijada asarlarda shakl elementlarining joylashuvi tartibsiz emasligi, sujetning ahamiyatga molik unsurlari oddiy geometrik ko'rinishlarda uchburchak, piramida, doira, oval, kvadrat, to'g'ri tortburchaklardan tashkil topadi. Yangi zamonaviy kompozitsiyalar yaratish uchun albatta, g'oya, joylashtirish, mutanosiblik, simmetriya, assimmetriya, nisbiylik, marom, xarakter turlari, ranglar uyg'unligi, kompozitsiya markazi, xajmi, stilizatsiya, shakllarni to'g'ri va teng qismlarga bo'lish, rangshunoslik qonunlariga to'liq rioya qilish lozim.

Miniatyurada rasm ishlashda tasvirlarni kompozitsiyada to'g'ri joylashtirish maqsadga muvafiqdir. Joylashtirish – chizish kerak bo'lgan shakl yoki tasvirni yuzaga to'g'ri joylashtirishdir. Kompozitsiyada joylashtirish barcha mutaxassislik va soxalar uchun katta ahamiyatga ega. Musavvir o'zi chizmoqchi bo'lgan loyihani yuzaga to'g'ri joylashtira olishi lozim. Kompozitsiyada barcha unsurlarni to'g'ri joylashtira olmaslik natijasida asosida talabga javob bermaydigan san'at asarlar vujudga keladi. Asar mavzusidagi unsurlar togri joylashsa kompozitsiya shuncha mukammal bo'ladi. Joylashtirish jarayonida kompozitsiya qonunlariga to'la rioya qilish shart. Kompozitsiya tuzilayotganda mavzu, g'oya, mantiq, joylashtirish simmetriya va assimetriya, marom, mutanosiblik, nisbat, xarakat kompozitsiyada modul, keskin va nozik farqlanish, kompozitsiyasida stilizatsiya kabi qonunlar hisobga olingan holda ifoda etiladi.

Simmetriya – grekcha so'z bo'lib o'lchovlarning bir-biriga munosibligini bildiradi. Bir-biriga simmetrik o'lchovlarga misol keltiradigan bo'lsak tarozning pallasi ham bir-biriga nisbatan simmetrik joylashgan. Simmetriya mavzusi nihoyatda keng bo'lib uni vaqt va makondan cheklab bo'lmaydi. Insoniyat tarixi davomida deyarli har qanday sivilizatsiyada fan, san'at hamda intellektual faoliyatning boshqa turlarida, simmetriya muhim ro'l o'ynagan.

Me'morlar, musavvirlar, kompozitorlar, sozandalar va olimlar bir-birlariga yaqin tushunchalardan foydalanadilar, lekin turli tillarda gaplashadilar. Bu esa turli soha vakillarining simmetriya borasida bir-birlarini tushunishlarini yana qiyinlashtiradi. Simmetriya biz sezadigan jonzod va jismlar masalan: kapalak, mebel va osimliklar qamda hayvonat olamini qamrab olmasdan balki tasviriy san'at, kompozitsiya, musiqa, raqs, adabiyotda ham keng uchraydi. Simmetriya insonlar asrlar davomida tartib, go'zallik va mukammallikka erishish va yaratish uchun harakat qilishlaridagi g'oya b'olib kelgan. Tabiatda simmetriya qandaydir ichki qonunlar asosida vujudga keladi. Simmetriyaning estetik aqamiyati uning hayotdagi ahamiyatiga bog'liqmi? - degan savol tug'iladi. Boshqacha qilib aytganda ijodkor simmetriyani tabiatdan oladimi? Tabiatdan nusxa ko'chirib uni



takomillashtiradimi? G o‘zallik simmetriya bilan uzviy bog‘liqdir. Ko‘zguda aks etgan simmetriya hayotda va san'atda katta aqamiyatga ega. Ko‘zguda aks etgan simmetriyaning aniq geometrik tushunchasi mavhum bo‘lgan muvozanatlashish, garmonik ijod tushunchalari bilan aralashib, qorishib ketgan. Frey o‘zining «Tasviriy san'atda simmetriya muammosiga doir» maqolasida yozadi: “Simmetriya xotirjamlik va bog‘langanlikni bildiradi, assimmetriya esa uning butunlay qarama-qarshisi bo‘lib qarakat va erkinlikni bildiradi. Shaklning simmetriya markazi, oqi yoki tekisligiga nisbatan bir xil joylashishi simmetriya deb ataladi. Simmetriya markazi, oqi yoki tekisligi atrofida aylantirilsa uning simmetrik unsurlari bir birining ornini to‘la egallaydi. Simmetrik kompozitsiyaning alohida bir ko‘rinishi – bu naqshlar. Simmetriya bilan bir qatorda assimmetriya tasvirlarda ko‘p ishlatiladi.

Assimmetriya bu simmetriyaga qarama – qarshi qonun. Assimmetriya-simmetriyaning aksi va buzilishidir. Kompozitsiya assimmetriya asosiga qurilgan bo‘lsa, unda asosiy qoidaga ko‘ra simmetriya emasdir. Agar aksincha kompozitsiya simmetriya qoidalariga qanchalik rioya qilsa, assimmetriya bo‘lmaydi.

Miniatyurada rasm ishlashda maromning ham o‘z o‘rni bor. Marom olchamlari mos bo‘lgan unsurlarning qonuniy ravishda ma'lum masofada takrorlanishi va ketma-ket kelishidir. Marom tabiat va inson hayotidagi ko‘pgina xodisalarga organik tarzda xos bo‘lgan xossadir. Kun va tunning, yil fasllari almashishi, organik hayot turli shakllarining rivojlanish davriyligi vaqtda yuz beradi. Bu davriylik va takrorlanish moddiy shakllarda o‘z izini qoldiradi. Masalan, daraxt tanasi qirqimida yillik halqalarning takrorlanishi, yil fasllarining ketma-ket qaytarilishi tufaylidir, vaqtdagi davriylik fazoviy moddiy shakllarda o‘z aksini topadi. Marom real borliq qonuniyatlarining aks etishi sifatida barcha san'at turlariga kirib kelgan hamda badiiy shakl yaratishning zaruriy vositasiga aylangan.

Kompozitsiyalar tuzishda mutanosiblik uslublarining qo'llanilishi muhim aqamiyat kasb etadi. Shaklning ikki unsuri qismning o'zaro olchamli munosabati mutanosiblik deyiladi.

Nisbat keng ma'noda noma'lum bir kattalikni boshqa ma'lum kattalikka nisbatlash orqali topish imkonini beradigan munosabatdir. Nisbat tushunchasi o'zining dastlabki ma'nosida ifodalanayotgan chiziq uzunligining haqiqatda mavjud bo'lgan chiziq uzunligiga nisbatini bildiradi. Nisbat sonlarda yoki ma'lum olchamdagi to'qri chiziq kesmalari orqali ifodalanishi mumkin. Nisbat bo'lganligi tufayli biz chiziqlarni, haritalarni oqish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Ushbu xolatda nisbat chizilgan jism olchamlari uning haqiqatdagi olchamlariga mos kelishi darajasini ifodalaydi. Inson ko'rayotgan biror narsaning kattaligini real sezish uchun uni yaxshi ma'lum bo'lgan boshqa bir narsa bilan aqlan solishtirib k orishi lozim.

Modul - buyum olchamlarini qisoblashga asos qilib olingan kattalikdir. Buyumlar olchamlarining modulga tushishligi ular yordamida bitta buyumning aynan o'zini turlicha yiqish, yoki ularni boshqa buyumlarda ishlatish imkonini beradi. Asosiy modul buyumning boshlanqich olchamidir.

Kompozitsiyada keskin farqlanish solishtirishning buyumnmng tashqi ko'rinishdagi ranglarning o'ziga xos belgilarni aniqlaydi. Keskin farqlanish xususiyatlarini baholashda buyumlarni bir-biriga nisbatan solishtirish mumkin. Solishtirish jarayonida ayrim olchamlarda keskin farqlanish ko'z bilan qarab asongina aniqlanadi.

Nozik farqlanish. Solishtirilayotgan jismlarning katta-kichikligi, tasviri, rangi, hajmi, joylashishi, tashqi ko'rinishidagi yaqin xususiyatlar nozik farqlanish deyiladi. Bu bir xil turdagi jismlar va qismlar orasidagi nozik belgilarni ajratish imkonini beradi. Nozik farqlanish k o'zning bir qatortakroriy harakatidan iborat ancha murakkab solishtirish jarayonidir.

Miniatyura kompozitsiyasida stilizatsiya. Stilizatsiya tabiatdagi osimlik, hayvonot va boshqa narsalarning tasviri, rangi, shakli, va tuzilishi badiiy usulda umumlashtirish ya'ni ramziylashtirishdir. Talabalar kompozitsiya unsurlari chizishda osimliklardan shox, poya, quncha, barg, gul, qayvonlar, qushlar, tabiat manzalari, tog'lar, daryolar, quyosh, yulduzlar va boshqa ko'rinishlardan nushalar ko'chirib, tasviri, rangi, shakli, va tuzilishlarini badiiy usulda umumlashtirib, ramziylashtiradi. Miniatyura kompozitsiyalarida ulardan oqilona foydalanib juda ajoyib tasvirlarni hosil qiladi. Buni ko'rgan inson aks ettirilgan shakldan estetik zavq oladi. Bu usuldagi tasvirlarni biz xalq amaliy san'atining barcha turlarida ko'rishimiz mumkin. Masalan so'zanani oladigan bo'lsak falakning O'rtasida quyosh, atrofida sayyora va yulduzlar, gullar barglar uslublashtirilgan xolda kishiga zavq beradi. Stilizatsiya osimlik va hayvonot dunyosidan olingan turli shakllardir. Masalan: butalar, novdalar, shohlar, barglar, mevalar, gullar va shu kabi shakllarni qayta ishlash demakdir. Talabalar o'zlari tanlagan naturaning shaklini kompozitsiya tarkibiga qo'shish mumkin bo'lgan bezak shakliga keltiradi. Bunda naturaning ayrim qismlari, ranglarni badiiy shaklga keltiriladi. Bular talabalarning ijodiy fantaziyasini yanada rivojlantirishga yordam beradi va ularning ijodiy qobiliyatini yanada ostirib boradi. Bunda talabalar butun bir yaxlit jsmning tashqi ko'rinishini bir necha badiiy chiziqlar yordamida aniq va lo'nda qilib tasvirlashni organadilar. Tasvirlash jarayonida kompozitsiya qonun qoidalarini puhta o'zlashtirmasdan turib yaxshi miniatyura asarlarini yaratib bo'lmaydi.

## 2.2. Miniatyura san'atining estetik tarbiyadagi ahamiyati

Kelajak yoshlarni komil, sog'lom, teran fikrli, dunyo qarashi keng, Vatanga, halqimizga foydasi tegadigan barkamol insonlar bo'lib yetishishida tasviriy san'at va amaliy san'at fanining ham o'z o'rnini bor. Insoniyat azaldan go'zallikka intilib yashaydi. Go'zallik har qanday yaxshilik sari olib boradi. Tasviriy san'at va amaliy san'at inson aql idrokining kengaytirib uning tevarak atrof munosabatini ustiradi. U iqtidorli va estedotli yoshlarni shakllanuvchi uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Shu kabi kishi qalbida go'zallik hislarini, ezgulikni, tabiatga, Vatanga bo'lgan muhabbatni oshiradi. Tarixiga, milliy urf odatlariga bo'lgan qiziqishni oshiradi va uni ulug'laydi. Shuningdek yoshlarni sabr toqatli, chidamli bo'lishlarida ularda mehnat qilish ko'nikmalarini shakllanishida ham yordam beradi.

Shunday ekan tasviriy san'atda asarlarini kuzatar ekansiz beixtiyor ko'z odingizga jonajon o'lkamiz tabiat ko'rinishini ijod qilgan ajoyib mo'yqalam ustalari ishi bilan g'ururlanamiz, haykaltaroshlar, me'morlarning yaratgan asarlari ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Bunyod etilgan quruluşlar el ravnaqidir. Yoshlarni estetik dunyo qarashini shakllanishida, mahorat bilan yaratilgan tasviriy san'at asarlarining o'rnini nihoyatda kattadir. Rassomlar asarlarini kuzatish bilan birgalikda, badiiy tahlil qilishning ham ahamiyati beqiyos.

Ma'lumki, miniatyura rasmlardagi o'ziga xos go'zallik va insonparvarlik g'oyalari yoshlarni ezgulikka undash, ularning badiiy - estetik dunyo qarashlarini boyitish manbaidir. Chunki mo'jaz tasvirlarda chinakkam xalqchilik g'oyalari, qadimiylilik hamda mahalliylik ko'rinishlari o'z aksini to'liq topgan. Xususan, o'zbek rassomlari yaratgan miniatyura asarlarida qaynoq hayot, turli lavhalar, doimiy, harakatdagi mavjudotlarning tasvirini ifoda etuvchi kompozitsiyalar, hamda uzoq o'tmishning, asl mohiyati, o'ziga xos aniq yaratilgan shakllarda yorqin va sof ranglar, uyg'unligi bilan juda nozik, nafis tekis va ravon chiziqlarda qunt va yuksak mahorat bilan ochib berilgan, bu uning ijobiy ta'sirchanlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, musavvirlarning tasvirlarni o'ziga yorqin bo'yoqlar va naqshin

bezaklari bilan, takrorlanmas, obrazli badiiy tili, tarixiyliги jihatdan yoshlarning estetik tasavvurlariga, badiiy tafakkuriga va yangicha dunyoqarashini shakllanishini, rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi va uning asosiy manbayi bo'lib hisoblanadi.

Bu o'rinda buyuk muyqalam sohibi Kamoliddin Behzod hayoti va ijodini o'rganishning ahamiyati kattadir. Sharq tasviriy san'atining yirik namoyondasi, mo'yqalamning sehri bilan nafasat olamiga nur baxshida etgan buyuk musavvir Kamoliddin Behzodning nomi jahon tasviriy san'ati tarixida alohida o'rinni egallaydi. Afsuski, bizgacha Behzodning hayoti, ijodiy faoliyati haqida juda kam ma'lumot saqlanib qolgan. Buning turlicha sabablari bor. Birinchidan, musavvir yashagan zamon hiyla murakkab bo'lib, bu davr allomalari tasviriy san'at haqida batafsil adabiyotlar yozib qoldirisholmagan. Xullas, Behzod yashagan davrda ham tasviriy san'at ma'lum bir ilm va san'at vakillari, shoh saroylari atrofida e'tiborga tushgan xolos. Xalq orasida esa tasviriy san'at asarlarining yoyilishiga yetarli imkoniyat bo'lmagan. Shunday qilib, musavvir ijodi, hayoti qalamga olingan manbalar juda oz, hatto Behzodning tug'ilgan yili haqida ham munozaralar mavjud.

Tadqiqotchilarning taxminlariga qaraganda, Kamoliddin Behzod 1455 yili Hirotda kosib – hunarmand oilasida dunyoga kelgan. Juda yerta etim qolgan.

Mumtoz musavvir Kamoliddin Behzodning buyuk san'atkor bo'lib yetishishida dastlab «Nigoriston» tasviriy san'at akademiyasining ta'siri hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Bu maktab bilan shuhrat qozongan o'z davrining mashhur ustasi musavvir Mirak Naqqoshning ijodxonasida Kamoliddin Behzod ta'lim olganligi ma'lum.

Behzod madaniyat va san'atning rahnomasi Alisher Navoiy dahosidan yetarlicha bahramand bo'laolganligi ko'pgina adabiyotlarda ta'kidlangan. O'z davridayoq Alisher Navoiy portretini yaratish borasida Kamoliddin Behzod samarali ijod qiladi. Shuningdek, Navoiyining hayotiga bag'ishlangan va

Navoiy portreti tasvirlangan asarlari tufayli Hirot madaniyat olamida taniladi. Asta – sekin Behzod Hirotida katta hurmatga sozovor bo'la boshlaydi. Hayoti va ijodi davomida juda ko'plab nafis miniatyura asarlarini yaratib, tasviriy san'at tarixida o'lkan madaniy meros qoldiradi.

Kamoliddin Behzodning Mavlono Mirak Naqqosh, Alisher Navoiy, kabi ko'plab ma'rifatparvarning ta'sirida buyuk musavvir va minyaturist bo'lib yetishdi. Ayniqsa, bunda uning san'at va nafosatga zo'r ishtiyoqi, mehnatsevar va zahmatkashligi ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Behzod asarlarida dunyodagi bitmas - tunganmas go'zallik, tevarak - atrofni o'rab olgan ijtimoiy muhit, hayotiy lavhalar, inson va uning turli munosabatlari asosiy mavzu qilib olingan. Ayniqsa, mehnatkash xalq vakillari mehr - muhabbat bilan real tarzda go'zal bo'yoqlarda tasvirlangan. Behzod asarlarida yashil o'tloq, ulkan tog'lar, zilol suvlar turli ranglar vositasida uyg'unlashib, qirmizi chechakli daraxtlar, chug'dek xilma - xil gullar, feruza zamin uzra go'zal tabiat manzarasini yuzaga keltiradi. Bunda Behzod mo'yqalamining aql bovar qilmaydigan darajada nozikligiga shubxa qolmaydi. Me'morchilik obidalari, o'tmish madaniyatimiz aks ettirilgan lavhalarida esa, Behzodning O'rta Osiyo xalqlari san'ati tarixida birinchi insonparvar musavvir ekanligiga ishonch hosil qilinadi. Shu sababdan ham Kamoliddin Behzodning minyaturalari yoshlarga tugal ma'naviy o'zuqa beradi, ularning estetik didini rivojlantiradi. Shu narsa aniqki, nafis mo'jaz rasmlar ilmiy va tarixiy asarlarning nodir qo'lyozmalarini bezashga xizmat qilgan. Kamoliddin Behzod ham o'z davrining eng ulug' olimi, shoir va mutaffakkirlarining asarlariga zo'r mahorat bilan tasvirlar yaratgan. Sh.A. Yazdiyning "Zafarnoma", Adburahmon Jomiyning "Solomon va Ibsol", Amir Hisrav Dehlaviyning "Hamsa", shoir Sa'diyning "Bo'ston", shoir Abdullo Xotifiyning "Temurnoma" kabi ko'plab asarlarini Kamoliddin Behzod o'zining go'zal minyaturalari bilan bezagan. Bunda tasvirlarning mazmuni nihoyatda aniq va sodda, tushunarligi o'quvchilarning badiiy tafakkurini o'stirishda katta ahamiyatga egadir. Kamoliddin Behzodning Muhammad Shayboniyxon tasviri ana shunday tasvirlardan biridir. Musavvir

asarda xon rasmini bezaksiz oddiy kiyimda tasvirlagan bo'lib, uning barcha holatlarini tushunarli tarzda ochib bergan. Masalan: tasvirda Shayboniyxonning salobatli - qomati, jismoniy kuch va irodaga ega ekanligi, aql - zakovati va o'tkir zehnligi, sofdilligi ko'zga tashlanadi. Musavvir Shayboniyxon tasvirini yaratishda uning o'ng qo'li bosh barmog'idagi (o'q yoy otganda taqiladigan) xalqasi orqali mohir janchiligini ham ustalik bilan ifoda eta olgan.

Kamoliddin Behzod ijodining xalqchiligi shundaki, u mehnat manzarasini zo'r mahorat bilan xaqqoniy tasvirlaydi. Zeroki, Behzod yashagan davr har qancha og'ir bo'lsa ham, u o'z davrining barcha azob - uqubatlarini, g'am - anduhlarini, qayg'u hasratlarini hamda ilg'or ijtimoiy g'oyalarini, an'analarini, o'zining asarlarida moxirona tasvirlagan. Bu esa, Behzodning o'z zamonasida nihoyatda chuqur xalqparvar va oliyjanob g'oyalar sohibi, zabardast realist musavvir ekanligidan darak beradi. Shu sababdan Kamoliddin Behzod asarlari yetuk va barkamol nafis tasviriy san'at asarlari sifatidan juda muhim estetik ahamiyatga egadir. Vaholanki, Behzod ijodida boshdan - oxirigacha estetik jarayon mavjud bo'lib, u to'liq ifoda etilgan. Shu boisdan ham Behzod asarlari go'zal tasviriy san'at asarlari sifatida yoshlarga ma'naviy ozuqa va estetik zavq baxsh etib kelmoqda. Behzod o'zining sermahsul hayoti va ijodi davomida o'lgan san'atkorlar, maktabini yaratdi va o'zining sehrigar san'atining sir - asrorlarini ehtirosli va fidoyi shogirdlariga baxsh etdi.

Kamoliddin Behzodning nafosatga boy jozibali maktabini keng va chuqur o'rganish shu kunning muhim masalalaridan biridirki, buning uchun avvalo, barcha badiiy maskanlarida yoshlarga Behzodning hayoti va ijodini ilmiy jihatdan mustahkam o'rgatish zarurdir. Chunki o'tmishda o'rta va yaqin Sharq, O'rta Osiyo xalqlarining hayoti va turmush sharoitlari, real tarixiy voqea va hodisalar, o'sha davrdagi xalqlarning kiyim kechaklari, asbob - uskunlari, shug'ullanadigan mashg'ulotlari, ulkan xalq shodiyonalari, yig'inlari Kamoliddin Behzodning nafis minyaturasida zo'r mahorat va xaqqoniyat bilan tasvirlangan.

Kamoliddin Behzod asarlarida ifodalangan voqelikni his va idrok etish, yoshlarning hayotni bilishlarida tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Eng muhimi ularda

estetik hissiyot va ehtiyoj, insoniy munosabatlar tarkib topadi, dunyoqarashi takomillashadi, ma'naviy va estetik kamoloti mukammal bo'ladi. Biroq hozirgi kunga qadar ham o'quvchilarning badiiy - estetik tarbiyasida keng ijobiy imkoniyatga ega bo'lgan mo'jaz san'atdan samarali foydalanishga jiddiy e'tibor berilayotir. Natijada talabalar Behzodning yuksak badiiy mahorat bilan yaratgan asarlarining mazmuni va chuqur g'oyasni to'g'ri tushunish va anglashda qiynalishmaydi. Aksincha, nafaqat Kamoliddin Behzod ijodini xatto, uning ta'limini olgan qator shogirdlari ijodini o'rganish ham muhim hisoblanadi. Chunki uning shu uslubda shogirdlari ijodida ham o'z aksini topgan. U har bir iste'dodli va umidli yoshlarga o'z san'ati sirini jonu - dili bilan o'rgatib, ularni ilm - fan, san'at yo'liga olib kirgan. Uning shogirdlari ham minyatura san'atini Behzod uslubida rivojlantirganlar.

Kamoliddin Behzodning iste'dodli shogirdlaridan Sulton Muhammad, Qosim Ali, Mavlono Darvish Muhamad, Muzaffar Ali, Yusuf Mullo, Rustam Ali, Shox Muzaffar, Mir Said Ali, Muhammad Muzahhib kabi ko'plab shogirdlari ijodini o'rganish, bugingi kunda yoshlar badiiy ijodining (usta shogirdlik asosida) yuksalishiga ijobiy ta'sir etadi.

Noyob qo'lyozma kitoblarga ishlatilgan miniatyura san'atining katta bir qismi Zahiriddin Muhammad Boburning „Boburnoma“ kitobiga zarb etilgan. Atoqli adabiyotshunosh olim Hamid Sulaymonovning sayharakatlari evaziga „Boburnoma“ga ishlangan bebaho miniatyura rasmlar alohida kitob holida nashr qilingan. Unda jamlangan suratlarning birinchisi XVII asr boshlarida ishlangan hushtab shoirona qiyofadagi Zahiriddin Muhammad Bobur siymosidir

Keyingi davr miniatyurani rassomlari haqida ma'lumotlar juda kam bo'lsada, ular yaratgan asarlar horijiy davlatlardagi ko'pgina muzey va kutubxonalarning qimmatli xazinalari sifatida saqlanib kelmoqda.

XVIII—XIX asrlarda ijod qilgan tasviriy san'at ustalaridan Muhammad Muqim, Ahmad Kalla, Ahmad Donish, Mulla Xusniddin, Mulla Ortiq, Rahmatiy, Ibrohim Davron kabi rassomlar faoliyati e'tiborga molikdir. Masalan, O'zbekiston



san'atshunoslik institutida saqlanayotgan XIX asr boshlarida Ahmad Donish tomonidan ishlangan «Majnun sahroda» deb atalgan miniatyura o'lkamiz tabiat manzarasini aks ettirishi bilan alohida qimmatga ega. Xuddi shuningdek, XIX asr miniatyura san'atining xarakterini Ahmad Kalla ishlagan rasmlarda ham ko'ramiz. Xulosa qilib aytganda, bu davrda ham O'zbekiston tasviriy san'atida, miniatyura mo'jaz san'ati keng miqyosda taraqqiy etgan.

Tarixiy manbalarga ko'ra, surat solingan lakli qutichalar XVI asrda Buxoroda yasalgan ekan. Bu davrdagi lakli miniatyura namunalari bizgacha etib kelmagan, hunarmandchilikning bu turiga xos bo'lgan ko'pgina ishlab chiqarish jarayonlari esa unutilib ketgan. 1960 yillarda O'zbekistonning bir qator musavvirlari va xalq ustalari ushbu ajoyib san'at turini qayta tiklashga bel boqladilar. Ular orasida taniqli o'zbek musavviri Chingiz Axmarov va uning shogirdlari Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov hamda osha paytda yosh, navqiron san'atkorlar Niyozali Xolmatov, Shomahmud Muxammadjonov, Abduvosit Qambarov, G'ayrat Kamolov, Munira Sotiboldieva va boshqalar bor edi. Ijodiy ustaxona tashkil etilib, unga o'z asarlarida Sharq miniatyurasining ko'p asrlik an'alarini izchillik bilan rivojlantirib kelayotgan musavvir Chingiz Axmarov rahbarlik qildi. O'zbekiston musavvirlarining ijodiy amaliyotida san'atning yangi turi-lakli miniatyuraning paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Lakli miniatyura san'atining shakllanish jarayoni murakkab kechdi.

Shomahmud Muqammadjonov o'z ijodi davomida lakli miniatyura bilan shug'ullanadigan ilk musavvirlar avlodi uchun iborat bo'ldi. O'rta asr Sharq miniatyurasi, uning texnologik usullariga oid chuqur bilim va ayni chog'da akademik dastgoqli rangtasvir malakalari Shomahmud Muxammadjonovda o'ziga xos badiiy uslubning shakllanishiga zamin bo'ldi. U naqshlarda o'rta asrlar miniatyurasi qonunlariga amal qiladi. Musavvir qaxramonlari ruhiy qolatini qiyofa, vaziyat, imo-ishoralar, ranglarning ramziy ma'nolari orqali aks ettiradi. Biroq Shomahmud Muhammadjonov O'rta asrlardagi ustalardan farqli ravishda, miniatyura san'atining an'anaviy tizimiga zamonaviy muallifning o'ziga xos badiiy

tafakkurini ham singdirishga harakat qiladi. U O‘zbekiston tasviriy san'atida an'analar va zamonaviylikning uyg'unlashuvidan iborat o'ziga xos yunalishning asoschilaridan biriga aylandi.

Bugungi kunda yoshlarni, mo'jaz miniatyura san'ati asarlari bilan yaqindan tanishtirish, badiiy tahlil qilishga o'rgatish, estetik dunyo qarashlarini shakllantrishda katta ahamiyatga ega.

## Xulosa

Mustaqqilik davrida kelajagimiz bo'lgan yoshlarni munosib insonlar bo'lib yetishishida barcha ilm fan va san'at arboblari o'zlarining ijod faoliyatlariga yangicha tus, yangicha mohiyat berib mehnat qila boshladilar. Maqsad esa bitta. Yangi avlod, komil insonni tarbiyalash va tezlikda taraqqiy etib borayotgan turmush tarzida o'z o'rnini munosib egallashida yordam berishdir. Tabiiyki, milliy qadriyatlarni, tarixni bilmay turib millat ravnaqiga erishib bo'lmaydi. Zero, yurtboshimiz takidlaganlaridek, "O'tmishini bilmay turib, kelajakni qurib bo'lmaydi". Mana shunday muammolarni bartaraf etishda miniatyura asarlarini idrok etish muhim ahamiyat kasb yetadi.

O'rta Osiyo miniatyura san'atini o'rganishimizda qadimgi O'zbekiston rangtasvir san'atiga etibor bermasdan ilojimiz yoq. O'zbekiston hududiga mansub qadimgi rangtasvir san'ati o'ziga xos bebaho namunalariga ega. Bulardan, Samarqandning o'rni Afrosiyob, Surxondaryoning Bolaliktepa, Buxorodagi Varaxsha, Panjikentdagi devoriy rangli tasvirlar diqqatga sazovordir. Miniatyura san'artining eng katta va o'ziga xos taraqqiy etgan davri bu asosan Temuriylar davri hisoblanadi. XIV – XV asrlarga kelib qo'lyozma kitoblarning qayta ko'chirilishi natijasida ko'plab tasviriy san'at namunalari yuzaga keladi va ular kitobat san'atini yanada boyitadi. Bu asarlarda asosan shoh, saroylardagi hayotiy voqyealar tasvirlab beriladi. Olim Naim Norqulovning ma'lumot berishicha, Boysunqur Mirzo Hirot nafis va tasviriy san'ati anjumani (akademiyasi) ni tuzgan. Namlari jahon tasviriy san'ati tarixida muhim o'rin yegallangan Xo'ja G'iyosiddin Haraviy, Amrshohiy Sabzavoriy, Mirak Naqqosh, Halil Mirzo Shohruhiy, Sulton Ibrohim, Sultonali Mashhadiy, Mavlona Ja'far Turbatiy Hirot akademiyasi tashkilotchilari edilar.

XVIII—XIX asrlarda ijod qilgan tasviriy san'at ustalaridan Muhammad Muqim, Ahmad Kalla, Ahmad Donish, Mulla Xusniddin, Mulla Ortiq, Rahmatiy, Ibrohim Davron kabi rassomlar faoliyati e'tiborga molikdir. XX asr va XXI asr boshida O'zbekiston rangtasvirida milliy yunalishning hayot bilan bevosita bog'liq va

mavzu hamda uslubiga ko'ra ancha rang-barang bo'lgan yo'li ham rivojlanadi. 70-yillardagi avlod orasida bu yo'nalish vakillari asosan B. Jalolov, J. Umarbekov, T. Muhamedov, Sh. Abdurashidov va A. Mirzayevlar ijod qilishgan. Ular syujet va obrazlarning hayotiy ishonarliligini saqlab qolgan holda, kundalik voqeylikni ulug'vor va sirli ma'noga to'liq borliqqa aylantirishadi. O'zbek lokli miniatyurasi tashabbuskorlari — taniqli rassom Chingiz Ahmarov rahbarligi ostida ishlab turgan Niyozali Xolmatov, Shomahmud Muhammadjonov, Abdubosid Qambarov, Natalya Soy, Munira Sotiboldiyeva, G'ayrat Kamolov, Abdug'ani Aldashevlarning dastlabki asarlari yaratildi.


Miniatyura san'ati jozibali va qiziqarliligi bilan nafaqat o'zlashtirishda, hatto uni idrok qila bilishda ham muayan tayyorgarlikni talab qiladi. Miniatyurada ishlangan rasmlar tamoshabinga juda katta badiiy estetik ta'sir etib u nafosat olamiga etaklaydi. Miniatyurada faqatgina narsa va voqyealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari ham ifodalanadi.

Miniatyurada rasm ishlashning o'ziga xos tamonlari bor. Unda rang pespektivasi, chiziqli pespektiva, havo pespektivalaridan foydalanilmaydi. O'rta asrlar miniaryura san'ati bilan hozirgi davr zamonaviy miniatyura san'atining, ishlanishida farq qiladi. Zamonaviy miniatyura san'atida odamlar tasviridagi kiyimlarda turli tasvirlar va bezaklar berilishi, jim-jimodorlik kuzatiladi.


Xulosa qilib aytganda, miniatyurada rasmlari ishlash, va uni o'rganish tabiat go'zalliklarini ko'ra bilishga, hamda yoshlarda estetik didni rivojlanishida ahamiyati katta. Shuningdek yoshlarda vatanparvarlik xissini uyg'otib, ajdodlar merosiga milliy g'urur bilan nazar tashlashlarida muhim omil bo'la oladi. Bu esa o'z navbatida yosh avlodning o'tmishga to'g'ri munosabat bildirib, kelajakka ildam qadam tashlashlariga yordam beradi. Bugungi kunda, O'zbekiston diyorini yanada ko'rkam va chiroyli bo'lishida, shuningdek kelajak avlodni barkamol insonlar bo'lib, yetishishida, miniatyura san'atining o'z o'z orni bor.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. I. A. Karimov. Yuksak ma'naviya yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008. nashriyoti.
2. I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda T., "O'zbekiston", 1996
3. M. Nabiyev. Rangshunoslik T., "O'qituvchi", 1995
4. N. Oydinov. Rassom-o'qituvchilar tayyorlash muammolari. T., "O'qituvchi", 1997.
5. S.S.Bo'latov. Rangshunoslik. T., O'zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti 2009
6. B. Boymetov. N. Tolipov. Maktabda tasviriy san'at to'garagi. T., 1995
7. S. Uralov. Mo'jiza yaratish san'ati. T., "Mehnat", 1996
8. N. Oydinov. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. T., "O'qituvchi", 1997
9. R. Xasanov. Tasviriy san'at asoslari. T., G'.G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi. 2009
10. S.F.Abdurasulov. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. T., "ILM – ZIYO", 2011
11. Shoxalil Shoyoqubov. Zamonaviy O'zbekiston mimiatyurasi.T., "O'zbekiston", 2006
12. P. P. Shabaratov. Miniatyura. T. "Iqtisod - moliya" nashriyoti. 2011
13. R. Xasanov. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. T. "Fan", 2004
14. B. Boymetov. Qalam tasvir. T. "Musiqa nashriyoti", 2006
15. G'. M. Abduraxmonov. Tasviriy san'at kompozitsiyasi. T., 1996
16. B.T. Maxmudov. Dasgohli rangtasvirda kompozitsiya. T., 2009
17. D. A. Nazilov. Kompozitsiya asoslari. T., "Yangi asr avlodi", 2009
19. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
20. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
21. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
22. [www.nbgf.intal.uz](http://www.nbgf.intal.uz)
23. tdpu-INTERNET. Ped [www.nbgf](http://www.nbgf).




**Samarqand. Afrosiyb devoriy rangli tasvir. VI-VII asr**



**Buxoro. Varaxsha devoriy tasvir. VI-VII asr**



**K.Behzod. “Shayboniyxon” partreti. XV-asr**



**Komoliddin Behzod. “Sulton Husayn Boyqaro” portreti (XV asr)**



**Chingiz Ahmarov ishlagan “Shirin” portreti. 1945 y**





**Shamsutdin Rixsiyev. Namoyon. “Amir Temurning Bibixonim masjidi loyihasi yuzasidan suhbatı” 1996 y**



**Fahriddin Rahmatullayev. “Ovchi” Charm, 2005 y**



**Shomahmud Muhammadjonov. Kitobga ishlangan rasm. “Alisher Navoiy  
Nizomiy Ganjaviy hamda Xusrav Dehlaviy ruhidan tarbiyat va madad  
so’ramoqda” Shohqog’oz tempera, suv bo’yoq**

